

O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA QO‘LLANILGAN ANTROPONIMLARNING SEMANTIKASI HAMDA BADIY FUNKSIYASI

S.B.Xursanqulov,

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

D.Z.Abdumuzimova,

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi antroponimlarning funksional-semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Xususan, asardagi antroponimlarning lug‘aviy ma‘nosi, lingvistik va lingvopoetik jihatlari, muallifning shaxs nomlarini qo‘llash mahorati, ularning badiiy matndagi ahamiyati va obraz xarakterini ochishdagi roli tahlil qilinadi. Ushbu asardagi antroponimlar chuqur semantik hamda funksioanal yuklamaga ega bo‘lib, ular obrazning individual xususiyatlarini ochish, ularning ijtimoiy va ruhiy portretini tasvirlashda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: antroponim, semantika, badiiy funksiya, lingvistika, lingvopoetika, lug‘aviy ma‘no, obraz, xarakter.

Abstract. This article examines the functional-semantic features of anthroponyms in O‘tkir Hoshimov’s novella “Dunyoning ishlari.” In particular, it analyzes the lexical meanings of anthroponyms in the work, their linguistic and linguopoetic aspects, the author’s skill in using personal names, their significance in the artistic text, and their role in revealing character traits. The anthroponyms in this work carry deep semantic and functional loads, serving as an important artistic means for revealing the individual characteristics of characters and depicting their social and psychological portraits.

Keywords: anthroponym, semantics, artistic function, linguistics, linguopoetics, lexical meaning, image, character.

Аннотация. В данной статье исследуются функционально-семантические особенности антропонимов в повести О‘tkir Hoshimov «Дунёнинг ишлари». В частности, анализируются лексическое значение антропонимов в произведении, их лингвистические и лингвопоэтические аспекты, мастерство автора в использовании личных имён, их значение в художественном тексте и роль в раскрытии характера образов. Антропонимы в данном произведении обладают глубокой семантической и функциональной нагрузкой, выступая важным художественным средством для раскрытия индивидуальных особенностей персонажей, а также для изображения их социального и психологического портрета.

Ключевые слова: антропоним, семантика, художественная функция, лингвистика, лингвопоэтика, лексическое значение, образ, характер.

Kirish. Ushbu kichik tadqiqotimizda O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida uchraydigan antroponimlarning lingvistik va lingvopoetik jihatlari hamda ularning funksioanal-semantik xususiyatlari ilmiy asosda yoritib beriladi. Ushbu mavuz ustida olib borgan bir-nechta tadqiqotlarimizda antroponimlarning badiiy asardagi funksiyasi haqida tilshunos olimlarning qarashlarini keltirib o‘tgan edik, shunday bo‘lsa-da, yana bir antroponimshunos olim E.A.Begmatovning fikrlarini ham yodga olib o‘tmoqchimiz. Tilshunos olim o‘zining “O‘zbek tili antroponimikasi” kitobida shaxs

nomlari haqida quyidagicha ma'lumot keltirgan: *“Antroponim ham onomastikaning xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo‘lib, u o‘z ichiga bir qancha birliklarni oladi. Masalan, N.V.Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, sharif, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim (erkaklarga atab qo‘yilgan nom), ginekonim (ayollarga qo‘yilgan nom), patronimlar (otasining ismi bilan atalish) kirishini qayd qilgan”* [2.10].

Adabiyotlar tahlili. Antroponimlarning lingvistik va lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish onomastika sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. E.A. Begmatov o‘z tadqiqotlarida o‘zbek antroponimlarining semantik tarkibi, etimologiyasi hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlarini keng yoritib bergan. N.V. Podolskaya antroponimlarni onomastikaning mustaqil birligi sifatida baholab, ularning nominativ va funksional jihatlariga alohida e‘tibor qaratadi. O‘tkir Hoshimov ijodiga oid ilmiy izlanishlarda esa yozuvchining badiiy til mahorati, obraz yaratish uslubi hamda milliy ruhni ifodalashdagi lingvopoetik vositalardan foydalanishi tahlil qilingan, biroq “Dunyoning ishlari” qissasidagi antroponimlarning semantik va badiiy funksiyasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, semantik va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Asardagi antroponimlar matndan ajratib olinib, ularning etimologiyasi, lug‘aviy ma‘nosi hamda badiiy funksiyasi lingvistik va lingvopoetik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, antroponimlarning obraz xarakterini ochishdagi o‘rni va muallif uslubidagi ahamiyati kontekstual tahlil asosida yoritib berildi.

Tahlillar va natijalar. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan *O‘tkir Hoshimov* asarlarida qo‘llanilgan antroponimlar ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e‘tiborlidir. Xususan, uning onalarga bag‘ishlangan *“Dunyoning ishlari”* qissasida bir qancha kishi ismlari, laqablari va taxalluslari qo‘llanilgan bo‘lib, ular nafaqat shaxsni nomlash, balki muhim lingvistik hamda lingvopoetik vazifalarni bajaradi. Ular asar mazmunini boyitishga, shaxsni ismi orqali xarakterlashga, yozuvchining antroponimlarni qo‘llash mahoratini ko‘rsatishga, o‘zbek xalqi hayoti va madaniyatining xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Muallifning *“Dunyoning ishlari”* qissasi bir nechta (*Alla, Tush, Haqqush, O‘ris bolaning oyisi, Toy, Vali, Opamni topib oldim, Iltijo, Oq marmar, qora marmar, Ermon buvaning tilagi va hokoza*) hikoyalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular hayotiy voqealarga asoslangan. Asar adibning bolalik davridagi voqealar asosida qurilgan bo‘lib, Sovet (SSSR) davridagi oddiy qishloq oilalari, odamlar turmush tarzi adibning onasi bilan uyg‘unlashtirilib tasvirlangan. Yozuvchi asarda ko‘plab antroponimlardan foydalangan. Xususan, asarda keltirilgan antroponimlarning umumiy soni 80 ta bo‘lib, ular 72 ta kishilarning ismlari, 2 ta familiya va 4 ta laqablar hisoblanadi. Biz ushbu nomlarni (antroponimlarni) yanada chuqurroq o‘rganib, quyidagi jadval asosida yoritib berishga

harakat qildik (Ushbu jadvaldagi bosh obrazlar hamda epizodik obrazlar har bir hikoyaga nisbatan olingan).

ASARDA QO‘LLANILGAN ANTROPONIMLAR				
Bosh obrazlar	Epizodik obrazlar	Ismlar	Familiyalar	Taxallus va laqablar
<i>Acha</i> (“Mening acha xolam” hikoyasi qahramoni)	<i>Abdi</i> (<i>Pistachi hikoyasi qahramoni</i>)	<i>Abdi</i>	<i>Toshev</i>	<i>Shayx</i>
<i>Abdujabbor</i> (“Usta” hikoyasi qahramoni)	<i>Abduvohid</i> (“Ikki afsona” hikoyasi qahramoni)	<i>Abdujabbor</i>	<i>Ochilov</i>	<i>Popuk</i>
<i>Dalavoy</i> (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	<i>Achinskiy</i> (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	<i>Abduvohid</i>	<i>Achinskiy</i>	<i>Poshsha</i>
<i>Ermon</i> (“Eng og‘ir gunoh” hamda “Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	<i>Adham</i> (“Ikki afsona” hikoyasi qahramoni)	<i>Adham</i>		<i>Qoravoy</i>
<i>Habiba</i> (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	<i>Afzalxon</i> (“Oy quyoshdan nur oladi” hikoyasi qahramoni)	<i>Afzalxon</i>		
<i>Jahongir</i> (“Havas” hikoyasi qahramoni)	<i>Ali</i> (“Qonoat” hikoyasi qahramoni)	<i>Ali</i>		
<i>Klava</i> (“Imon” hikoyasi qahramoni)	<i>Alpomish</i> (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	<i>Alpomish</i>		
<i>Mehri</i> (“Havas” hikoyasi qahramoni)	<i>Asqar</i> (“Mening acha xolam” hikoyasi qahramoni)	<i>Asqar</i>		
<i>Naim</i> (“Po‘stdumbali moshkichiri” hikoyasi qahramoni)	<i>Baxti</i> (“Qarz”, “Oltin baldoq” hikoyalari qahramoni)	<i>Baxti</i>		
<i>Poshsha</i> (“Qarz” hikoyasi qahramoni)	<i>Bashoratxon</i> (“Opamni topib oldim” hikoyasi qahramoni)	<i>Bashoratxon</i>		
<i>Qahramon</i> (“Xiyonat” hikoyasi qahramoni)	<i>Damin</i> (“Xiyonat” hikoyasi qahramoni)	<i>Dalavoy</i>		
<i>Sharofat</i> (“Oltin baldoq” hikoyasi qahramoni)	<i>Dilbar</i> (“Kaltakesakning dumi” hikoyasi qahramoni)	<i>Damin</i>		

	<i>qahramoni)</i>			
<i>Shayx</i> (“Mahallaning shayxi” hikoyasi qahramoni)	Egamberdi (“Xo’ja” hikoyasi qahramoni)	Dilbar		
Toyir (“Toy” hikoyasi qahramoni)	Ermon (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	Egamberdi		
Vali (“O’ris bolaning oyisi” hikoyasi qahramoni)	Farhod (“Sovchilar” hikoyasi qahramoni)	Ermon		
Xo’ja (“Xo’ja” hikoyasi qahramoni)	Guli (“Sovchilar” va “Kaltakesakning dumi” hikoyalari qahramoni)	Farhod		
Zebi (“O’ris bolaning onasi” hikoyasi qahramoni)	Habiba (“Ermon buvaning tilag”i hikoyasi qahramoni)	Guli		
	Hakim (“Po’stdumbali moshkichiri” hikoyasi qahramoni)	Habiba		
	Haydar (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	Hakim		
	Hoji (“Mahallaning shayxi” hikoyasi qahramoni)	Haydar		
	Huri (“Kaltakesakning dumi” hikoyasi qahramoni)	Hoji		
	Ilhaq (“Haqqush” hikoyasi qahramoni)	Huri		
	Is’hoq (“Haqqush” hikoyasi qahramoni)	Ilhaq		
	Isroil (“Oltin baldoq” hikoyasi qahramoni)	Is’hoq		
	Kimsan (“O’ris bolaning onasi” hikoyasi qahramoni)	Isroil		

	<i>Mahmud</i> (“Sovchilar” hikoyasi qahramoni)	<i>Jahongir</i>		
	<i>Mo‘min</i> (“Qanoat” hikoyasi qahramoni)	<i>Klava</i>		
	<i>Muborak</i> (“Sovchilar” hikoyasi qahramoni)	<i>Mahmud</i>		
	<i>Muhammadjon</i> (“Havas” hikoyasi qahramoni)	<i>Mavluda</i>		
	<i>Murodjon</i> (“Oy quyoshdan nur oladi” hikoyasi qahramoni)	<i>Mehri</i>		
	<i>Naim</i> (“Po‘stdumbali moshkichiri” hikoyasi qahramoni)	<i>Mo‘min</i>		
	<i>Nazira</i> (“Sovchilar” hikoyasi qahramoni)	<i>Muborak</i>		
	<i>Nikolay</i> (“Xo‘ja” hikoyasi qahramoni)	<i>Muhammad</i>		
	<i>Nilufar</i> (“Qarz” hikoyasi qahramoni)	<i>Murodjon</i>		
	<i>Niso</i> (“Toy” hikoyasi qahramoni)	<i>Naim</i>		
	<i>Ochilov</i> (“Kaltakesakning dumi” hikoyasi qahramoni)	<i>Nazira</i>		
	<i>Odilxo‘ja</i> (“Sovchilar” hikoyasi qahramoni)	<i>Nikolay</i>		
	<i>Olim</i> (“Po‘stdumbali moshkichiri” hikoyasi qahramoni)	<i>Nilufar</i>		

	Orif (“Oy quyoshdan nur oladi” hikoyasi qahramoni)	Niso		
	Otin (“Oltin baldoq” hikoyasi qahramoni)	Odilxo‘ja		
	Oltmishvoy (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	Olim		
	Popuk (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	Orif		
	Qoravoy (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	Yo‘ldosh		
	Rahmatulla (“Mening Acha xolam” hikoyasi qahramoni)	Oltmishvoy		
	Ra‘no (“Xo‘ja” hikoyasi qahramoni)	Qahramon		
	Risolat (“O‘ris bolaning onasi” hikoyasi qahramoni)	Rahmatulla		
	Rustam (“Po‘stdumbali moshkichiri” hikoyasi qahramoni)	Ra‘no		
	Saida (“Oltin baldoq” hikoyasi qahramoni)	Risolat		
	Sharofat (“Oltin baldoq” hikoyasi qahramoni)	Rustam		
	Sobir (“Opamni topib oldim” hikoyasi qahramoni)	Saida		
	Stalin (“Opamni topib oldim” hikoyasi qahramoni)	Sharofat		

	<i>To‘laganxo‘ja</i> (“Sovchilar” hikoyasi qahramoni)	<i>Sobir</i>		
	<i>To‘xtavoy</i> (“Mening Acha xolam” hikoyasi qahramoni)	<i>Stalin</i>		
	<i>Toshev</i> (“Imon” hikoyasi qahramoni)	<i>Toyir</i>		
	<i>Usmon</i> (“Sovchilar” hikoyasi qahramoni)	<i>To‘laganxo‘ja</i>		
	<i>Vera</i> (“Ikki afsona” hikoyasi qahramoni)	<i>To‘xtavoy</i>		
	<i>Xayri</i> (“Opamni topib oldim” hikoyasi qahramoni)	<i>Usmon</i>		
	<i>Xizir</i> (“Ermon buvaning tilagi” hikoyasi qahramoni)	<i>Vali</i>		
	<i>Xolposh</i> (“Opamni topib oldim” hikoyasi qahramoni)	<i>Valentin</i>		
	<i>Xotam</i> (“Oltin baldoq” hikoyasi qahramoni)	<i>Vera</i>		
	<i>Yo‘ldosh</i> (“Oy quyoshdan nur oladi” hikoyasi qahramoni)	<i>Xayri</i>		
		<i>Xizir</i>		
		<i>Xo‘ja</i>		
		<i>Xolposh</i>		
		<i>Xotam</i>		

Mazkur asarda qo‘llanilgan antroponimlar nominativ xususiyatlari hamda funksional-semantik vazifasi jihatidan ham e‘tiborlidir. Quyidagi jadval orqali ushbu

antroponimlarning etimologiyasi hamda lugʻaviy maʼnolarini yoritib berishga harakat qildik.

Antroponimlar	Qaysi tildan kelib chiqqanligi	E.Begmatovning “Oʻzbek ismlari maʼnosi” lugʻatidagi lugʻaviy maʼnosi	Shakllari
<i>Abdi</i>	Arabcha	<i>Qul, banda. Shu soʻz bilan boshlanadigan koʻpgina qoʻshma ismlarning qisqargan shakli [1.12].</i>	–
<i>Abdujabbor</i>	Arabcha	<i>Bandalari ishini isloh qilib, jabrlovchining quli, kuch-qudrat sohibining yaʼni Allohning quli [1.13] maʼnosida izohlanadi.</i>	–
<i>Abduvohid</i>	Arabcha	<i>Yakka-yagonaning yaʼni Allohning quli [1.13] maʼnosida ishlatiladi.</i>	–
<i>Adham</i>	Arabcha	<i>Qora, qora ot, badanida qora belgisi (xol) bilan tugʻilgan bola yoki qimmatli, noyob [1.24] maʼnolarida ishlatiladi.</i>	–
<i>Afzalxon</i>	Arabcha	<i>Ustun turuvchi, munosib, loyiq, qadrlı, hurmatli [1.38] maʼnosida ishlatiladi.</i>	–
<i>Ali</i>	Oʻzbekcha	<i>Eng yuksak, eng ulugʻ, yuqori martabali. Bu nom Muhammad paygʻambarning kuyovi, toʻrtinchi xalifaning ismidir [1.27].</i>	–
<i>Alpomish</i>	Oʻzbekcha	<i>“Alp emish” soʻzlarining qisqartirilgan shakli. Asarda Alpomish afsonaviy qahramonga ishora qilib keltirilgan.</i>	–
<i>Asqar</i>	Oʻzbekcha	<i>Kenja, kichik; erka, erkatoı. Ehtimol, Azhar (qar.) [1.37] maʼnolarida izohlanadi.</i>	–
<i>Baho</i>	Oʻzbekcha	<i>Baho soʻzi bilan boshlanadigan shaxs nomlarining qisqartirilgan shakli.</i>	–
<i>Baxti</i>	Arabcha	<i>Birinchi qismida “baxt” soʻzi kelgan qoʻshma ismlar (Baxtiyam, Baxtiniso)ning qisqargan shakli hisoblanadi [1.49].</i>	–
<i>Bashoratxon</i>	Arabcha	<i>Xushxabar, quvonchli darak, mujda, baxt-saodat darakhisi [1.50] maʼnosida izohlanadi.</i>	–
<i>Dala, Dalaboy</i>	Oʻzbekcha	<i>Ehtimol, dalada tugʻilgan bola yoki ulgʻayib dalalar, yerlarning egasi boʻlsin [1.109] maʼnolarida izohlanadi.</i>	–
<i>Damin</i>	Arabcha	<i>Sabotli, qunt-toqatli, mustahkam [1.109] maʼnosida izohlanadi.</i>	<i>Daminbek, Daminboy, Daminjon</i>
<i>Dilbar</i>	Arabcha	<i>Yoqimli, yoqimtoy, koʻngilni oluvchi, maftun qiluvchi; goʻzal, zebo; suyukli [1.112] maʼnolarida izohlanadi.</i>	–
<i>Egamberdi</i>	Oʻzbekcha	<i>Alloh ato qilgan (bergan) bola [1.508] maʼnosida izohlanadi.</i>	–

Ermon	<i>O'zbekcha-arabcha</i>	<i>Ermuhammad (kar.) ismining eski shakli (Ermuhammad + jon) [1.515] ma'nosida izohlanadi.</i>	–
Farhod	<i>Fors-tojikcha</i>	<i>Ziyrak, zukko, farosatli, o'tkir zehnli yoki g'olib, muzaffar [1.454] ma'nolarida izohlanadi.</i>	–
Guli	<i>Arabcha</i>	<i>"Gul" so'zi bilan boshlanadigan ba'zi qo'shma ismlarning (Guliniso, Gulira'no) qisqargan shakli [1.96] hisoblanadi.</i>	–
Habiba	<i>Arabcha</i>	<i>Suyukli, sevimli, e'tiborli, e'zozli qiz [1.565] ma'nosida izohlanadi.</i>	–
Hakim	<i>Arabcha</i>	<i>Bilimdon, aqlli, dono, donishmand. Bu nom Allohning sifalaridan biridir [1.568].</i>	–
Haydar	<i>Arabcha</i>	<i>Arslon, jasur, dovyurak, qudratli. Bu nom xalifa Alining laqabi bo'lgan. Shuningdek, Haydar – erkak bolalarda orqaga o'rib qo'yiladigan bir tutam soch, u sog'lik va osoyishtalik ramzi [1.567] ma'nosida izohlanadi.</i>	–
Hoji	<i>Arabcha</i>	<i>Ziyoratchi, sig'inuvchi, Ka'bani (Makkada) ziyorat qilgan shaxs [1.575] ma'nosida izohlanadi.</i>	<i>Hojibek, Hojibibi, Hojibeka, Hojiboy, Hojixon</i>
Huri	<i>Arabcha</i>	<i>Shodon, baxtli, go'zal, shahlo ko'zli qiz. [1.580] ma'nosida izohlanadi.</i>	–
Is'hoq	<i>Qadimiy yahudiycha</i>	<i>Aynan kulgi, xandon, kuluvchi, kulayotgan. Is'hoq payg'ambarning ismi [1.174] ma'nosida ham izohlanadi.</i>	–
Isroil	<i>Qadimiy yahudiycha</i>	<i>Alloh yo'lida kurashuvchi [1.173] ma'nosida izohlanadi.</i>	–
Jahongir	<i>Fors-tojikcha</i>	<i>Olamni bo'ysundiruvchi, fath etuvchi, g'olib, muzaffar [1.134] ma'nosida izohlanadi.</i>	–
Kimsan	<i>O'zbekcha</i>	<i>Oltin bilan ziynatlangan, chiroyli, go'zal yoki "kimsan o'zi", ya'ni yashaydigan (umri uzoq) bolamisan [1.186] ma'nosida izohlanadi.</i>	<i>Kimsanboy</i>
Mahmud	<i>Arabcha</i>	<i>Maqtalgan, maqtovga sazovor, dongdor, atoqli ma'nosida izohlanadi. Ushbu nom Muhammad (s.a.v.)ning sifatlaridan biri [1.223].</i>	<i>Mahmudjon, Mahmudxon</i>
Mavluda	<i>Arabcha</i>	<i>Muqaddas kunda tug'ilgan qiz [1.199] ma'nosida izohlanadi.</i>	–
Mehri	<i>O'zbekcha - fors-tojikcha</i>	<i>Mehriniso ismining qisqargan shakli [1.231] hisoblanadi.</i>	<i>Mehrigul, Mehrijon, Mehrixon</i>
Mo'min	<i>Arabcha</i>	<i>Dinga ishonuvchi, dinga sodiqligini til va iqrar bilan hamda qalban tasdiqlovchi, imonli, xudojo'y ma'nosida izohlanadi.</i>	–

		[1.277] <i>Mo'min nomi Allohning sifatlaridan biri bo'lib, bandalarini asrovchi, ularning xavfsizligini ta'minlovchi ma'nolarini anglatadi.</i>	
Muborak	<i>O'zbekcha-arabcha</i>	<i>Duo olgan, omadli, baxtli ma'nosida izohlanadi.</i> [1.253]	–
Muhammad	<i>Arabcha</i>	<i>Maqtovga, olqishlarga sazovor. ma'nosida izohlanadi. Muhammad payg'ambar (Muhammad ibn Abdulloh 570 yoki 571 Makka - 632 Madina)ning ismi hisoblanadi</i> [1.266].	<i>Muhammadjon, Muhammadxon va b.</i>
Murod	<i>Arabcha</i>	<i>Murod-maqsdli yoki orzu qilingan, qumsalgan bola ma'nosida izohlanadi</i> [1.258].	<i>Murodbek, Murodboy, Murodjon, Murodxon</i>
Naim	<i>Arabcha</i>	<i>Baxtli, omadli, saodatmand bola ma'nosida izohlanadi</i> [1.283].	–
Nazira	<i>Arabcha</i>	<i>Va'da qilingan, bag'ishlangan, sovg'a qilingan, avliyolarga nazr qilingan qiz ma'nosida izohlanadi</i> [1.282].	–
Nilufar	<i>Qadimiy hindcha</i>	<i>Nilufar (safsan) o'simligidek chiroyli, zebo qiz ma'nosida izohlanadi</i> [1.290].	–
Niso	<i>Arabcha</i>	<i>Ayol, xotin; qiz ma'nosida ishlatiladi</i> [1.290].	–
Ochil	<i>O'zbekcha</i>	<i>Ochilsin ya'ni kasaldan (ko'rlik, eshitmaslik, soqovlik va b.) xalos bo'lsin ma'nosida izohlanadi</i> [1.330].	–
Odilxo'ja	<i>Arabcha-fors-tojikcha</i>	<i>Xo'jalar naslidan bo'lgan adolatli, haqgo'y bola ma'nosida izohlanadi</i> [1.307].	–
Olim	<i>Arabcha</i>	<i>Bilimli, bilimdon, donishmand ma'nosida ishlatiladi</i> [1.218].	<i>Olimbek, Olimjon, Olimxon</i>
Orif	<i>Arabcha</i>	<i>Bilimdon, aqlli, dono yoki xudojo'y ma'nosida ishlatiladi</i> [1.326].	<i>Orifbek, Orifboy, Orifjon, Orifxon</i>
Otin	<i>O'zbekcha</i>	<i>Savodxon, muallima, diniy ta'lim o'qituvchisi, xudojo'y ayol ma'nosida ishlatiladi</i> [1,330].	<i>Otinbibi, Otinbeka, Otinoy</i>
Oltmishvoy	<i>O'zbekcha</i>	<i>Otasi yoki onasi oltmish yoshligida tug'ilgan bolaga nisbatan qo'llaniladi</i> [1.321].	–
Popuk	<i>O'zbekcha</i>	<i>Popukdek (shirinlikning turi) shirin, yoqimtoy qiz ma'nosida ishlatiladi</i> [1.342]. <i>Hikoyada qizlarga laqab ma'nosida keltirilgan.</i>	–
Poshsha	<i>Fors-tojikcha</i>	<i>Ulg'ayib baland martabalarga erishsin yoki hurmatli, mo'tabar ma'nosida izohlangan</i> [1.343].	–

Qahramon	<i>Fors-tojikcha</i>	<i>Kuchli, qudratli, bahodir, dovyurak ma'nolarida izohlangan [1.540].</i>	–
Rahmatulla	<i>Arabcha</i>	<i>Allohning muruvvati, shafqati tufayli erishilgan bola ma'nosida izohlanadi [1.350].</i>	–
Ra'no	<i>Arabcha</i>	<i>Qizil guldek go'zal, chiroyli, latofatli ma'nosida izohlanadi [1.348].</i>	–
Risolat	<i>Arabcha</i>	<i>Elchilik, payg'ambar avlodiga mansub qiz ma'nosida izohlanadi [1.352].</i>	–
Rustam	<i>Pahlaviy</i>	<i>"Avesto"dagi Raodastan so'zidan olingan bo'lib, ulkan gavnali, qudratli, dovyurak, bahodir. Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostonidagi Zol o'g'lining ismi ma'nosida izohlanadi [1.354].</i>	<i>Rustambek, Rustamboi, Rustamxon</i>
Saida	<i>Arabcha</i>	<i>Baxtli, saodatmand qiz ma'nosida izohlanadi [1.360].</i>	<i>Saidabibi, Saidaxon, Saidabonu</i>
Sharofat	<i>Arabcha</i>	<i>Oliyjanob, oliyhimmat – toza, pokiza ma'nosida izohlanadi [1.490].</i>	–
Sobir	<i>Arabcha</i>	<i>Sabrli, toqatli bola. Bu nom Ayub payg'ambarning laqabi bo'lgan ma'nosida izohlangan [1.389].</i>	<i>Sobirboy, Sobirjon, Sobirxon, Sobira</i>
Toyir	<i>Arabcha</i>	<i>Pokiza, dog'siz, nuqsonsiz, begunoh bola ma'nosida izohlanadi [1.424]. Bu nom Muxammad (s.a.v.) o'g'lining nomi bo'lgan.</i>	–
To'laganxo'ja	<i>O'zbekcha</i>	<i>Oldingi farzandlar o'rniga, evaziga berilgan bola ma'nosida izohlanadi [1.434].</i>	–
To'xta	<i>O'zbekcha</i>	<i>Oldingi farzandlar o'rniga, evaziga berilgan bola ma'nosida izohlanadi [1.438].</i>	<i>To'xtaboy, To'xtaqul, To'xtaoy</i>
Usmon	<i>Arabcha</i>	<i>Siniqni, singanlarni davolovchi, shikastband yoki og'ir, bosiq, mard, jasur. Bu nom Usmon ibn Affon (614–656-yillar) – choryorlar deb yuritiluvchi xalifalarning uchinchisining ismi hisoblanadi [1.448].</i>	<i>Usmonboy, Usmonjon, Usmonoy</i>
Vali	<i>Arabcha</i>	<i>Eng yaqin do'st, avliyo, taqvodor inson ma'nosida izohlanadi [1.84].</i>	<i>Valibek, Valiboy, Valijon,</i>
Xayri	<i>Arabcha</i>	<i>Yaxshilik qiluvchi, xayr-saxovatli, mehribon, rahmdil ma'nosida izohlanadi [1.459].</i>	–
Xizir	<i>Arabcha</i>	<i>Xizir payg'ambarga nisbat berish orqali hosil bo'lgan nom hisoblanadi [1.462].</i>	–
Xo'ja	<i>Fors-tojikcha</i>	<i>Aynan xo'jayin, sohib, janob; muallim, ustoz kabi ma'nolarda izohlanadi [1.476].</i>	<i>Xo'jaboy, Xo'jabek,</i>

			<i>Xo'jaqul, Xo'jaxon</i>
<i>Xolposh</i>	<i>O'zbekcha</i>	<i>Ehtimol, Xolposhsha - xol bilan tug'ilgan hurmatli va e'zozli qiz.</i>	–
<i>Xotam</i>	<i>Arabcha</i>	<i>Saxiy, qo'li ochiq, oliyhimmat. Asli bu ism saxiyligi bilan juda mashhur bo'lgan Hotami Toy arabning nomidandir yoki hotam - yo'l boshchi, boshliq ma'nosida izohlanadi [1.577]. Asarda afsonaviy obraz Hotami Toy ismi keltirilgan.</i>	–
<i>Yo'ldosh</i>	<i>O'zbekcha</i>	<i>Otasi yoki akalariga hamroh bo'lib yursin degan maqsadda qo'yiladi [1.176].</i>	<i>Yo'ldoshbek, Yo'ldoshboy, Yo'ldoshjon</i>

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida qo'llanilgan antroponimlar nafaqat nominativ birlik sifatida, balki chuqur semantik va badiiy yuklamaga ega bo'lgan muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asarda uchraydigan shaxs nomlari o'zining lug'aviy ma'nosi, kelib chiqishi va qo'llanish kontekstiga ko'ra obrazlarning individual xususiyatlarini ochib berishda faol ishtirok etadi. Asardagi antroponimlar turli tillarga mansubligi (arabcha, fors-tojikcha, o'zbekcha va boshqalar) bilan ajralib turadi va bu holat o'zbek xalqining tarixiy-madaniy qatlamlarini aks ettiradi. Muallif tomonidan tanlangan har bir ism yoki laqab bevosita qahramonning xarakteri, ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati hamda hayotiy tajribasi bilan uyg'un holda qo'llaniladi. Shu jihatdan, antroponimlar obraz yaratishda muhim stilistik vosita vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, qissadagi antroponimlar orqali milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi, diniy va axloqiy qarashlar ham ifodalanadi. Ayniqsa, laqab va taxalluslarning qo'llanishi xalq og'zaki nutqi va real hayotiy muhitni badiiy matnga olib kirib, asarning realizmini yanada kuchaytiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "*Dunyoning ishlari*" qissasidagi antroponimlar semantik jihatdan boy, funksional jihatdan serqirra bo'lib, ular asarning badiiy-estetik qiymatini oshirish, obrazlarni individuallashtirish hamda muallifning g'oyaviy niyatini ochishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 608 б.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 224 б.
3. Подольская Н.В. Основы ономастики. – Москва: Наука, 1988. – 192 с.
4. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2006. – 384 б.
5. Ўткир Ҳошимов. Дунёнинг ишлари. – Тошкент: Шарқ, 2011. – 144 б.